

3.6. Jizzax viloyati EMMX quyidagi hollarda Foydalanuvchining REVLardan foydalanish huquqini to'xtatib turish yoki cheklashga haqli:

- REVLarni ro'yxatdan o'tkazish va uni foydalanish tartibini buzilishini bartaraf etilgunga qadar;

- alohida holatlarda, shuningdek Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi (RCHRK) tomonidan kiritilgan cheklov va taqiqlar asosida alohida radiochastotalardan foydalanish zaruriyati bo'lsa.

3.7. Foydalanuvchiga qo'yilgan to'lov varaqasi bankning 10 ish kuni muddatida to'lanmasa, inkassaga akseptsiz to'lov talabnomasi qo'yish va Foydalanuvchining hisob raqamidan to'lov undirish.

Foydalanuvchi huquqlari:

3.8. REVLardan foydalanish uchun berilgan ruxsatnoma doirasida taqdim etilgan radiochastotalardan foydalanish.

3.9. XEIda radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun Jizzax viloyati "EMMX" ga maslahatlar va tavsiyalar uchun murojaat qilish.

3.10. REVLarga ta'sir qiluvchi radioxalaqitlarni o'z vaqtida bartaraf qilish uchun Jizzax viloyati "EMMX"ga murojaat qilish.

3.11. Taqdim etilgan radiochastotalardan voz kechish xamda REVLardan foydalanishni to'xtatish.

4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov va hisob-kitob tartibi

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha barcha Jizzax viloyati "EMMX" xizmatlarining narxi (chastotalarni taqdim etish va REVga ruxsatnoma berish uchun to'lov, e'lon qilingan radiochastotalarni xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan muvofiqlashtirish va XEIda radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun xizmatlarning narxi, radiochastotalardan foydalanish uchun to'lov va boshqalar) taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalarga asosan belgilanadi.

4.2. Shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar uchun Jizzax viloyati EMMX va Foydalanuvchi o'rtasida hisob-kitob, Elektromagnit moslashuv ekspertizasi, radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar tariflariga muvofiq amalga oshiriladi (Tariflar).

4.3. Bir marotabalik to'lanadigan to'lovlar tariflarga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tegishli ruxsatnoma (olib kirish, harid qilish, o'rnatish, loyihalashtirish, qurish, foydalanish va boshqalarga) berilishidan oldin amalga oshiriladi.

4.4. Foydalanish uchun to'lovlar REVLardan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berilishidan oldin foydalanishning birinchi oyi uchun to'lanadi va keyinchalik har oyning 10 sanasigacha joriy oy uchun yillik miqdorning mutanosib qismida to'lanadi.

4.5. Foydalanuvchi foydalanish to'lovining yillik miqdorini birdan to'lashga haqlidir.

4.6. Tariflar o'zgargan taqdirda, Foydalanuvchi yangi tariflar joriy qilingan davrdan boshlab qo'shimcha to'lov to'laydi.

4.7. Foydalanuvchi berilgan hisobvara-q-faktura olgan kundan boshlab bankning 10 ish kuni ichida to'lashi kerak.

4.8. Tariflarda ko'zda tutilmagan ish va xizmatlarning narxi tomonlar o'rtasida kelishilgan narxlar va xarajatlar smetasi asosida to'lanadi.

5. Tomonlarning mas'uliyatlari

5.1. Ushbu bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Jizzax viloyati EMMX ning mas'uliyatlari:

5.2. Tegishli ruxsatnomalar berish va radioxalaqitlarni bartaraf etish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishning amaldagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilish.

5.3. Ushbu shartnomaga asosan ishlar va xizmatlarning o'z vaqtida yoki noto'g'ri bajarilgani uchun, Jizzax viloyati EMMX foydalanuvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning